



QO'SHMA KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING XORIJ TAJRIBASI

Yusupov Asror

"International School of Finance Technology and Science" instituti

ORCID: 0009-0006-3975-7352

asroryusupov14011992@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada xorijiy investor ishtirokidagi qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish, uning tashkiliy jihatlari bo'yicha tarkibiy tuzilishi, ustavini tashkil qilish, faoliyat yuritish sohalarini belgilash, aksiyadorlik jamiyati sifatida tashkil qilinishi, xalqaro standartlar asosida buxgalteriya hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobotlarini o'z veb saytlarida joylashtirilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: qo'shma korxonalar, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, moliyaviy hisob, soliq hisobi, jurnal o'tkazmalari, moliyaviy hisobot shakllari.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ОРГАНИЗАЦИИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СОВМЕСТНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Юсупов Асрор

*Институтом "International School of
Finance Technology and Science"*

Аннотация. В статье обосновывается организация бухгалтерского учета в совместных предприятиях с участием иностранных инвесторов, его организационная структура, составление устава, определение сфер деятельности, создание акционерного общества, ведение бухгалтерского учета на основе международных стандартов и размещение финансовой отчетности на своих веб-сайтах.

Ключевые слова: совместные предприятия, общественные организации, бухгалтерский учет, международные стандарты финансовой отчетности, финансовый учет, налоговый учет, журнальные проводки, формы финансовой отчетности.

FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING ACCOUNTING IN JOINT VENTURES

Yusupov Asror

*"International School of Finance Technology
and Science" Institute*

Abstract. The article substantiates the organization of accounting in joint ventures with the participation of foreign investors, its organizational structure, organization of the charter, determination of areas of activity, organization as a joint-stock company, accounting based on international standards, as well as the placement of financial statements on their websites.

Keywords: joint ventures, public organizations, accounting, international financial reporting standards, financial accounting, tax accounting, journal entries, financial reporting forms.

Kirish.

Globallashuv jarayonlari natijasida qo'shma korxonalar (QK) soni ortib bormoqda. Qo'shma korxonalar — bu ikki yoki undan ortiq mamlakat subektlari kapitali ishtirokida tashkil etiladigan xo'jalik yurituvchi subektlar bo'lib, ularning samarali faoliyati, avvalo, buxgalteriya hisobining to'g'ri va shaffof tashkil etilishiga bog'liq. Xorijiy tajriba bu sohada ilg'or standartlar, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv yondashuvlarini taklif etadi. Xorijiy investor ishtirokidagi qo'shma korxonalar zamonaviy iqtisodiyotda investitsiyalarni jalb etishning muhim tashkiliy shakli hisoblanadi. Bunday korxonalar milliy iqtisodiy muhit va xalqaro kapital bozorlarining rivojlantirish uchun faoliyat yuritadi. Shu sababli, qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobi oddiy jarayon emas, balki turli iqtisodiy manfaatlar va tartibga solish mexanizmlari bo'lib hisoblanadi.

Amaliyotda qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish masalasi ko'pincha "transformatsiya" va «parallel hisob» tushunchasi orqali izohlanadi. Biroq bunday yondashuv muammoning mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Aslida esa masala ikki hisobni parallel yuritishda emas, balki milliy buxgalteriya hisobi tizimi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari o'rtasidagi farqni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi milliy standartlar asosida yuritiladi, xorijiy investorlar ishtirokidagi korxonalarda esa moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq moliyaviy hisobot tayyorlash talabi mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevralda «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son Qarori (2020) qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni tezlashtirish asosida xalqaro investorlarni, ularning talablariga mos ravishda tegishli ma'lumotlar bilan ta'minlash va xalqaro bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy hisobotni ixtiyoriy ravishda MHXSga muvofiq tayyorlaydigan xo'jalik yurituvchi subektlarini buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot taqdim etishdan ozod etilishligi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 8-oktyabrda «Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risida»gi 181-son buyrug'iga asosan NIZOM(2024)qabul qilindi. Ushbu nizomga muvofiq, moliyaviy hisobot tarkibi va mazmunini, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga uyg'unlashtirilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi PQ-282-son "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (2025) qabul qilinishi qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida yuritish va moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish zarurligini belgilab beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish masalasi bir nechta asosiy nazariy va amaliy yondashuvlar doirasida o'rganilgan bo'lib, ularning har biri mazkur muammoni turli nuqtayi nazardan talqin qiladi. Mavjud tadqiqotlarni umumlashtirish natijasida ushbu yo'nalishlarni to'rt asosiy guruhga ajratish mumkin.

Birinchi yondashuv moliyaviy hisobotlarni standartlashtirish va uyg'unlashtirish masalasiga qaratilgan. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarda mualliflar milliy buxgalteriya hisobi tizimlari bilan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari o'rtasidagi farqlarni aniqlashga alohida e'tibor qaratadi. Tadqiqotchilar milliy hisob tizimlari asosan soliq va nazorat maqsadlariga yo'naltirilganligini, MHXS esa investorlar va kapital bozorlari uchun iqtisodiy mazmunni ochib berishga xizmat qilishini ta'kidlaydi (Nobes, 2011; Zeff, 2012). Mazkur ishlarining asosiy xulosasiga ko'ra, qo'shma korxonalarda moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish zaruriy jarayon hisoblanadi. Biroq ushbu tadqiqotlarda transformatsiya

jarayonining tashkiliy va amaliy jihatlari, tuzilgan moliyaviy hisoblari investorlar uchun yetarli darajada tahlil qilinmaydi.

Ikkinchi yondashuv qo'shma korxonalarda ikki tomonlama hisob amaliyotiga bag'ishlangan. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy ishlar parallel hisob tizimlarining shakllanish sabablarini tushuntiradi va uni amaliy moslashuv mexanizmi sifatida talqin qiladi. Ayrim mualliflar ikki tomonlama hisob xorijiy investorlar hamda milliy tartibga soluvchi organlar talablarini bir vaqtning o'zida qondirish imkonini berishini qayd etadi (Granlund, 2011). Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarda parallel ravishda hisob tizimini yuritilishi, moliyaviy nazorat va javobgarlik chegaralarining noaniqlashuvi kabi oqibatlari ikkinchi darajali masala sifatida qaraladi.

Uchinchi yondashuv buxgalteriya hisobi va axborot tizimlari, jumladan elektron tizimlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar elektron tizimlarining xalqaro moliyaviy hisobotlarni shakllantirish, konsolidatsiya jarayonlarini soddalashtirish va boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlashdagi rolini ijobiy baholaydi (Granlund, 2011). Biroq ko'plab ishlarda milliy buxgalteriya dasturlari bilan elektron tizimlari o'rtasidagi integratsiya muammolari yetarli darajada ochib berilmaydi. Natijada axborot tizimlarining ko'pligi hisob infratuzilmasining urakkablashuviga qanday ta'sir ko'rsatishi masalasi chetda qolmoqda.

To'rtinchi yondashuv institutsional iqtisodiyot doirasida shakllangan bo'lib, unda buxgalteriya hisobi texnik axborot tizimi emas, balki turli manfaatlar to'qnashadigan institut sifatida talqin qilinadi. Ushbu maqolada qo'shma korxonalarda moliyaviy axborot bir vaqtning o'zida bir nechta foydalanuvchilar uchun shakllantirilishi natijasida hisob tizimining fragmentatsiyalashuvi yuzaga kelishi qayd etiladi (Hopwood, 1987; Scott, 2014). Shu bilan birga, mazkur ishlarning aksariyatda amaliy hisob infratuzilmasi, xususan parallel axborot tizimlarining real faoliyatga ta'siri empirik misollar asosida yetarli darajada ochib berilmaydi.

Umuman olganda, xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish masalasi ko'p qirrali bo'lib, asosan alohida jihatlarni yoritishga qaratilgan. Biroq milliy va xalqaro hisob tizimlarining bir korxona doirasida majburiy uyg'unlashtirilishi natijasida yuzaga keladigan hisob tizimi hamda uning moliyaviy nazorat va javobgarlikka ta'siri yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan (North, 1990; Williamson, 2000).

Mazkur maqola aynan ushbu muammaolarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobini MHHS asosida yuritish va moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish zarurligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada experimental tadqiqot, umumlashtirish, guruhlashtirish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, istiqbolli prognozlash va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Qo'shma korxonalar asosan xorijiy davlatlar korxonalari bilan teng sherikchilik asosida faoliyat yuritish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Har bir davlatlarda qo'shma korxonalar mavjud bo'lib, ularni faoliyatini tahlil qilish bugungi kunda zarur bo'lib hisoblanadi. Yevropa davlatlari, Osiyo davlatlari bilan qo'shma korxonalar tashkil etilishi, faoliyat yuritilishi va moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayonini tahlil qilish lozim.

Qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish milliy va xalqaro hisob tizimlari o'rtasidagi institutsional nomuvofiqlik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tahlil qiyosiy institutsional yondashuv, konseptual model va amaliy kuzatuvlarga asoslangan mini-keyslar yordamida amalga oshiriladi.

Qiyosiy institutsional tahlil shuni ko'rsatadiki, milliy buxgalteriya hisobi tizimlari va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) buxgalteriya hisobiga turlicha iqtisodiy mantiq yuklaydi. Milliy hisob tizimlari, qoida tariqasida, fiskal nazorat, soliq bazasini aniqlash va majburiy hisobotlarni shakllantirishga yo'naltirilgan. IFRS esa moliyaviy axborotni investorlar uchun iqtisodiy mazmun asosida taqdim etishga qaratilgan.

Qo'shma korxonalar faoliyatida ushbu ikki yondashuv bir vaqtning o'zida amal qilishi talab etiladi. Natijada buxgalteriya hisobi yagona yaxlit tizim sifatida emas, balki turli maqsadlarga xizmat qiluvchi alohida hisob modullari majmuasi sifatida shakllanadi. Bu holat hisob infratuzilmasining parchalanishiga olib keladi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan konseptual modelga ko'ra, qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobi uch asosiy bosqichdan iborat hisob infratuzilmasi sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchi bosqich — milliy hisob moduli bo'lib, u soliq hisobi, majburiy moliyaviy shakllar va ish haqi hisob-kitoblarini o'z ichiga oladi. Ushbu qatlam qat'iy normativ tartibga solinadi va davlat moliyaviy nazorati ehtiyojlariga xizmat qiladi.

Ikkinchi bosqich — xalqaro hisob moduli bo'lib, u IFRS asosida moliyaviy hisobotlarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Mazkur qatlam investorlar va bosh ofis uchun mo'ljallangan axborotni taqdim etadi hamda iqtisodiy samaradorlikni baholashga xizmat qiladi.

Uchinchi bosqich — integratsiya va moslashtirish mexanizmlari bo'lib, aynan shu bosqichda hisob infratuzilmasining asosiy muammolari yuzaga keladi. Ma'lumotlarning takroran kiritilishi, turli hisob modullari o'rtasida tafovutlarning paydo bo'lishi va javobgarlik chegaralarining noaniqlashuvi ushbu qatlam bilan bog'liq.

Konseptual modelning amaliy tasdig'i sifatida qo'shma korxonalar amaliyotiga oid umumlashtirilgan jihatlar tahlil qilindi.

Birinchidan, qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish muammosi texnik emas, balki jamoat xarakterga ega. Ikkinchidan, parallel hisob modullari hisob sohaning rivojlanishiga olib keladi va moliyaviy nazorat samaradorligini pasaytiradi. Uchinchidan, ikki tomonlama hisob modeli uzoq muddatda boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini cheklaydi.

1-jadval

Qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish bo'yicha solishtirma jadval

Farqli jihatlar bo'yicha	Xorijiy davlatlar	O'zbekiston
Huquqiy-me'yoriy asos	IFRS, US GAAP, xalqaro me'yorlar ustuvor	MHMS asosiy, MHXSga bosqichma- bosqich o'tish
Moliyaviy hisobot	To'liq xalqaro standartlar asosida	Asosan milliy standartlar, ayrim hollarda parallel MHXS
Hisobot foydalanuvchilari	Xalqaro investorlar, fond bozorlari	Davlat organlari, investorlar, banklar
Valyuta operatsiyalari	Keng qo'llaniladi, risklar faol boshqariladi	Mavjud, ammo risklarni boshqarish cheklangan
Axborot texnologiyalari	SAP, Oracle, global ERP tizimlari	1C, UzASBO, cheklangan elektron dasturlar
Kadrlar malakasi	ACCA, CPA, CIMA sertifikatlari keng tarqalgan	Milliy malaka ustuvor, xalqaro sertifikatlar kam
Audit tizimi	ichki va tashqi audit	Tashqi audit rivojlangan, ichki audit kam darajada
Shaffoflik darajasi	Juda yuqori	O'rta darajada

AQSHda qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobi qat'iy nazorat qilinadi. US GAAP standartlari asosida:

Daromad va xarajatlar aniq davrlarga taqsimlanadi;
Ichki nazorat tizimi (Internal Control) kuchli rivojlangan;
Mustaqil auditorlik tekshiruvlari majburiy hisoblanadi.

Yevropa davlatlari tajribasi

Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniyada qo'shma korxonalar:

MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzadi;

Raqamli buxgalteriya tizimlari (SAP, Oracle)dan foydalanadi;

Korporativ boshqaruv va shaffoflikka katta e'tibor qaratadi.

Osiyo davlatlari tajribasi

Yaponiya va Janubiy Koreyada qo'shma korxonalar:

Milliy an'analar va xalqaro standartlar uyg'unlashtiriladi;

Uzoq muddatli rejalashtirish va xarajatlarni nazorat qilish muhim hisoblanadi;

Axborot texnologiyalaridan keng foydalaniladi.

Xorij tajribasidan O'zbekiston uchun qo'llaniladigan jihatlar asosan, qo'shma korxonalarda IFRSga bosqichma-bosqich to'liq o'tish;

Buxgalterlarning malakasini xalqaro darajada oshirish;

Raqamli buxgalteriya va avtomatlashtirilgan hisob tizimlarini joriy etish;

Ichki va tashqi audit tizimini kuchaytirish.

Qiyosiy institutsional tahlil milliy buxgalteriya hisobi tizimlari bilan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) o'rtasidagi maqsad, funksional yo'nalish va tartibga solish mexanizmlaridagi farqlarni aniqlash uchun qo'llanildi. Ushbu yondashuv buxgalteriya hisobini texnik jarayon sifatida emas, balki turli institutsional manfaatlar to'qnashadigan boshqaruv infratuzilmasi sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Tahlil jarayonida milliy hisob tizimlari va IFRS quyidagi mezonlar asosida taqqoslandi:

- hisobning asosiy maqsadi;
- moliyaviy axborot foydalanuvchilari;
- tartibga solish va nazorat mexanizmlari;
- hisobotlarning iqtisodiy mazmuni va taqdim etilish shakli.

Shundan kelib chiqqan holda, xorijiy investitsiya kirituvchi korxonalar yildan yilga oshib bormoqda. Bu borada, respublikamizda qo'shma korxonalarning ulushi muhim bo'lib hisoblanadi.

Bundan ko'rishimiz mumkinki, respublikamizda qo'shma korxonalar aksiyadorlik jamiyatlari sifatida ham faoliyat yuritmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlari sifatida faoliyat yuritayotgan "Uzbek leasing international A.O" AJ va "Ohangaronsement" AJ qo'shma korxonalarida ustav fondi asosan xorijiy aksiyadorlar ulushi orqali amalga oshiriladi va uning tashkiliy jihatlar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Qo'shma korxonalarda ustav fondi miqdori va undagi ta'sischilar ulushi

Qo'shma korxonalar	Ustav miqdori, so'm	Ta'sischilar ro'yxati	Ulushi, %da
"Uzbek leasing international A.O" AJ	17 259 944 000	O'MB	41,56%
		Malayya Benking Berxard	19,70%
		"O'zbek-O'mon Investitsiya Kompaniyasi" MCHJ	38,74%
"Ohangaronsement" AJ	4 918 427 000	Rossiya O'zbekiston	90% 10%

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobini MHXS asosida tashkil etish va moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tuzish muhim hisoblanadi. Bu esa, tashqi foydalanuvchilar, ya'ni xorijiy va potensial investorlar, qarz beruvchi va kreditorlarni ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlashga hamda tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Xorijiy tajriba va milliy amaliyotni solishtirish asosida O'zbekistonda qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. MHXSga to'liq va tizimli o'tishni jadallashtirish Yirik va xorijiy kapital ishtirokidagi qo'shma korxonalar uchun MHXSni majburiy qo'llash doirasini kengaytirish, milliy standartlarni esa xalqaro standartlarga yaqinlashtirish maqsadga muvofiq.

2. Ikkiyoqlama hisobot yukini kamaytirish Parallel (MHMS va MHXS) hisobot yuritishni qisqartirish uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va yagona moliyaviy hisobot mexanizmini joriy etish zarur.

3. Buxgalter kadrlarining xalqaro malakasini oshirish ACCA, CIMA, CPA kabi xalqaro sertifikatlash dasturlarini qo'llab-quvvatlash, buxgalter va moliyachilarni qayta tayyorlash tizimini kuchaytirish lozim.

4. Raqamli buxgalteriya tizimlarini keng joriy etish Qo'shma korxonalarda zamonaviy ERP tizimlari (SAP, Oracle va shunga o'xshash)ni bosqichma-bosqich joriy etish hisobning shaffofligi va tezkorligini oshiradi.

5. Ichki audit va moliyaviy nazoratni kuchaytirish Xorijiy tajriba asosida ichki audit xizmatlarini rivojlantirish, risklarni boshqarish va ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

6. Investorlar uchun axborot shaffofligini oshirish Moliyaviy hisobotlarning ochiqqligi va tushunarlilikini ta'minlash, xalqaro investorlar talablariga mos axborot siyosatini yuritish investitsiya jozibadorligini oshiradi.

7. Xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvini kengaytirish Xorijiy auditorlik va konsalting kompaniyalari bilan hamkorlik qilish, ilg'or buxgalteriya amaliyotlarini milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega.

8. Mazkur tadqiqotda qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning xorijiy tajribasi o'rganilib, O'zbekiston amaliyoti bilan solishtirma tahlil amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobi xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritilib, shaffoflik, hisobning ishonchlilik hamda investorlar manfaatlarini himoya qilish ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, ichki va tashqi audit tizimining rivojlanganligi ham xorij tajribasining muhim jihatlaridan hisoblanadi.

9. O'zbekiston amaliyotida esa qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobi asosan milliy standartlar asosida yuritilib, so'nggi yillarda IFRSga o'tish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq amaliyotda ikkiyoqlama hisobot yuritish, xalqaro malakali kadrlar yetishmasligi hamda raqamli buxgalteriya tizimlarining cheklangan darajada joriy etilishi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Bu holatlar moliyaviy axborotning taqqoslanish darajasini pasaytirib, xorijiy investorlar uchun muayyan qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

10. Ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, ularda MHXSga bosqichma-bosqich va tizimli o'tishni jadallashtirish, buxgalteriya hisobi va hisobotini raqamlashtirish, ichki audit va moliyaviy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek, buxgalter kadrlarining xalqaro malakasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi qo'shma korxonalarda hisob tizimining samaradorligini oshirib, investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tajribani milliy sharoitga mos holda joriy etish O'zbekistonda qo'shma korxonalar faoliyatini yanada rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmini ko'paytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Qo'shma korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etishda xorij tajribasi muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlar, shaffoflik va zamonaviy texnologiyalar qo'shma korxonalar faoliyatining samaradorligini oshiradi. Ushbu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish orqali iqtisodiyotda investitsiya muhitini yanada yaxshilash mumkin.

Adabiyotlar / Адабиятлар / Reference:

- Charles W. L. Hill, (2008) McGraw-Hill Irwin. *Global business today*, – 592 p.
- Granlund, M. (2011). *Extending AIS research to management accounting and control issues: A research note. International Journal of Accounting Information Systems*, 12(1), 3–19.
- Hopwood, A. G. (1987). *The archaeyology of accounting systems. Accounting, Organizations and Society*, 12(3), 207–234.
- Johri, A. (2024). *IFRS adoption and financial reporting quality. Journal of Risk and Financial Management*, 12(4), 96.
- Michael R. Czinkota, Ilkka A. (2021) Ronkainen, Suraksha Gupta. *International Business. Cambridge University Press*, - 588 p.
- Nizom (2024) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktyabrdagi "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 181-son buyrug'i.
- Nobes, C. (2011). *IFRS practicyes and the persistencye of accounting system classification. Abacus*, 47(3), 267–283.
- Norbekov D.E., To'rayev A.N., Raxmonov Sh.Sh. (2019) *Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya*, -332 b.
- North, D. C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performancye. Cambridge: Cambridge University Press.*
- Periodica Journal. (2025). Accounting challenges in joint ventures under IFRS. Periodica Journal of Accounting and Finance.*
- Potharla, S. (2025). *Global adoption of IFRS: determinants and implications. SSRN Working Paper.*
- Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2020-yil 24-fevralda PQ-4611-sonli Qarori <https://lex.uz/docs/4746047>.
- Qaror (2025) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi PQ-282-son "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
- Qonun (2014) O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoyalash to'g'risida"gi Qonuni. Yangi tahriri. Toshkent sh. 2014-yil 6-may, O'RQ-370-son.
- Qonun (2016) O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 28-noyabrdagi "Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot to'g'risida"gi Qonuni. Yangi tahriri. 2016-yil 13-aprel O'RQ-404-son, www.lex.uz.
- Qonun (2021) O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni. <https://www.lex.uz/acts/225255>.
- Scott, W. R. (2014). *Institutions and Organizations: Ideas, Interests, and Identitiyes (4th ed.)*. Thousand Oaks, CA: Sage Publications.
- Williamson, O. E. (2000). *The New Institutional Economics: Taking Stock, Looking Ahead. Journal of Economic Literature*, 38(3), 595–613.
- Zeff, S. A. (2012). *The evolution of the IASC into the IASB, and the challenges it facyes. The Accounting Reviyew*, 87(3), 807–837.